



Volume 2, Issue 2(15), 2023

Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Chief Editor:

Sharipov Shavkat Safarovich

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh
State Pedagogical University, Uzbekistan

Deputy Chief Editor:

Sodikov Khamid Makhmudovich

The Dean of the Faculty of Physics and
Technological Education, dotsent

Orishev Jamshid Bahodirovich

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University,
Uzbekistan

Members of the editorial board:

Ubaydullaev Sadulla, dotsent

Ismailov Tuychi Djabbarovich, dotsent

Kholmatov Pardaboy Karabaevich, dotsent

Umarov Rakhim Tojievich, dotsent

Murtazaev Melibek Zakirovich, dotsent

Abduraimov Sherali Saidkarimovich, dotsent

Taylanov Nizom, senior teacher

Tagaev Khojamberdi, senior teacher

Tugalov Farkhod Karshibayevich, PhD

Alibaev Turgun Chindalievich, PhD

Yusupov Mukhammad Makhmudovich, PhD

Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich, PhD

Irmatov Fozil Muminovich, PhD

Editorial Representative:

Jamshid Orishev

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK
JOURNAL**

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali

**Журнал “Физико-
технологического образование”**

**“Journal of Physics and Technology
Education”**

Indexed By:



Publihed By:

<https://phys-tech.jdpu.uz/>
Jizzakh State Pedagogical
University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2023-04-25

AL BERUNIYNING ILIM-FAN SOHASIDA SHARQ MAMLAKATLARI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

Qambarov Sanjar Sodiq o'g'li

*A.Qodiriy nomidagi JDPU, Fizika va uni o'qitish metodikasi kafedrası
o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston.
e-mail: sanjarqambarov01@gmail.com*

Annotatsiya: Al Beruniy 973-yil Xorazmni Kot shahrida tavallud topadi. U ota -
onasidan juda erta yetim qoldi va shoh Iroqiylar xonadonida tarbiyalanadi. Xorazmshohning
jiyani amakisining o'g'li Abu Nasr Mansur ibn Iroq Beruniyning ustoz bo'lgan. Faylasuf Rayda
mashhur olim matematik va astronom al-Xo'jandiy, tabib va faylasuf ar-Roziylar bilan tanishadi.
Beruniy Hindistonda o'n uch o'n to'rt yil yashadi. O'zining „Hindiston“ asari uchun ma'lumot
yig'di va uni 1030 - yil yozib tugatdi. Beruniy o'zining shoh asarini Mas'udga bag'ishlab
„Qonuni Mas'udiy“, deb atadi. Beruniyning asarlaridan atigi 30 ga yaqini bizning kunlarga
yetib kelgan.

Kalit so'zlari: sanskrit tili, Hindiston, folklori, kashshof, Kalkutta, jo'g'rofiyasi, Abu
Nasr Mansur ibn Iroq, Xorazmshoh,

Abstract: Al Beruni was born in 973 in Khorezm city of Kot. He was orphaned by his
parents at a very early age and was brought up in the royal family of Iraqis. Khorezmshah's
nephew, his uncle's son, Abu Nasr Mansour ibn Iraq, was the teacher of Beruni. The philosopher
Ryda meets the famous scientist, mathematician and astronomer al-Khojandi, and the physician
and philosopher ar-Razi. Beruni lived in India for thirteen and fourteen years. He collected
information for his work "India" and finished it in 1030. Beruni dedicated his royal work to
Mas'ud and called it "The law of Mas'ud". Only about 30 of Beruni's works have survived to our
days.

Key words: Sanskrit language, India, folklore, pioneer, Calcutta, geography, Abu Nasr
Mansur ibn Iraq, Khorezmshah,

Аннотация: Ал Беруни родился в 973 году в хорезмийском городе Кот. Он
осиротел своими родителями в очень раннем возрасте и воспитывался в королевской
семье иракцев. Учителем Беруни был племянник хорезмшаха, сын его дяди, Абу Наср
Мансур ибн Ирак. Философ Рида знакомится с известным ученым, математиком и
астрономом аль-Ходжанди, врачом и философом ар-Рази. Беруни прожил в Индии
тринадцать и четырнадцать лет. Он собрал информацию для своего труда «Индия» и
закончил его в 1030 году. Беруни посвятил свой царский труд Масуду и назвал его «Закон
Масуда». До наших дней дошло всего около 30 работ Беруни.

Ключевые слова: санскрит, Индия, фольклор, первопроходец, Калькутта,
география, Абу Наср Мансур ибн Ирак, Хорезмшах,

Beruniyning hayoti va faoliyati avlodlarga shunday ta'sir qiladiki, uning
asarlarini o'qigan kitobxon o'zini asarning ichiga tushib qolgandek his qiladi va

asarlar ichidagi ilm sadaflaridan unumli foydalanishga harakat qiladi. Buyuk mutafakkir qomusiy olim Abu Rahhon Beruniy qadimgi Xorazmning Kot shahrida (973–1048) tavallud topgan. Olim nafaqat O'zbek xalqi balki butun turkiy xalqlari uchun juda ko'plab asarlar yozib ilm-fan sohasida beqiyos ishlarni amalga oshirgan. Beruniy ota-onasidan juda yosh va erta yetim qolganiga qaramay o'zining zehni, zukkoligi bilan alohida ajralib turgan va Iroqiylar qaromog'ida voyaga yetadi. Beruniy yoshligidan ilmga tashna bo'lgan bu haqda “Men bolalik chog'imdanoq – deb yozgan edi Beruniy – o'z yoshim va sharoitimga qarab, imkoni boricha ko'proq bilim olishga intildim. Buning dalili sifatida quyidagini keltirish kifoya: - biz turadigan joyga bir yunon ko'chib kelgan edi. Men har xil donlar, urug'lar, mevalar va hakoza larni olib borib, unga ko'rsatib va bu narsalar uning tilida qanday atalishini so'rab, nomini yozib qo'yar edim”. Iroqiylarning oxirgi vakili Xorazmshoh, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Iroq hisoblanadi. Xorazmshohning jiyani amakisining o'g'li Abu Nasr Mansur ibn Iroq Beruniyning ustozidir¹. “Beruniy juda yoshligidan ilm va fanga qiziqadi. U sevgan fanlar astronomiya, matematika, geodeziya, geografiya va mineralogiya edi. Jahon tarixidagi birinchi hindshunos olim Abu rayhon Beruniy sulton Mahmud G'aznaviyning Hindiston yurishida hamroh bo'lgan. Hind zaminida bir necha yil yashab, sanskrit tilini o'rgandi. U Hindiston haqida o'zigacha ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlarni sinchiklab to'pladi va “Hindiston” deb nomlagan qomusiy asar yaratdi. Beruniy bu noyob va nodir asarida qadimgi va o'rta asr hind tarixi, falsafasi, dinlari, astronomiyasi, jo'g'rofiyasi, huquqi, urf-odatlar haqida qimmatbaho ma'lumotlarni kelgusi avlodlarga yozib qoldirdi. Abu Rayhon Beruniyning bu asariga baho bergan hind olimi Hamid Rizo so'zi bilan aytsak, o'rta asr va yangi zamon mual liflaridan hech biri hind madaniyatining chigal masalalarini chuqur ilmiy ruhda tushunishda Abu Rayhon Muhammad Beruniy erishgan yutuqlar darajasiga yeta olmadi. Beruniyning “Hindiston” asari muallifning qadimgi hind madaniyati va faniga qilgan tortig'idan iboratdir. Kalkutta universiteti professori S.K. Chatterjining fikricha Beruniy hind mualliflari tiliga xos bo'lgan xususiyatlarni shunday yaxshi bilganki, hatto bunday kishilarning o'sha til egasi bo'lmish hind xalqi ichidan chiqishi ham kamdan-kam uchraydigan hodisa edi. Milodiy 1040 yillarda madaniyat olamida hind va musulmonlarning madaniy merosini har tomonlama chuqur bilgan faqatgina bir kishi bo'lgan, u ham bo'lsa Abu Rayhon Beruniy edi. Olimning fikricha, Beruniy hindshunos olim bo'lishi bilan birga barcha davr hindshunoslarining ham eng birinchisi sanaladi. Abu Rayhon Beruniy o'n uch-o'n to'rt yil Hindistonda umr

¹ Mamatov N., Hojeboyev A., Yo'ldoshev S. Falsafa. – T.: Sharq, 2005. – B. 66.

kechirgan. Muallif o‘z asarida hind tafakkurining turli-tuman soha larini qamrab olishga harakat qilgan. Asarda ularning fani, tarixi, diniy kitoblari va e’tiqodlari, ruh-jon, borliq, modda, bu dunyo, narigi dunyo haqidagi tushunchalari, hatto hind tili, grammatikasi, yozuvi, folklori ulardagi yozma yodgorliklar, she’riyat, falsafasidagi rang-barang tarmoqlar va boshqa ko‘p masalalar qamrab olingan. Beruniy asarida hindlarning aniq fanlari haqida ham ancha chuqur fikr yuritadi, yer, osmon, umuman, olam tuzilishi haqida ularning tushunchalari bayon etiladi. Asarning bir qancha bobi zamon va vaqt, olamning paydo bo‘lishi masalasi, kun, oy va yillarning bo‘laklari, ular haqidagi tushun chalarga bag‘ishlangan. Hindistonning mashhur davlat arbobi Javoharla’l Neru Beruniyning bu asarini hurmat-ehtirom bilan tilga oladi. “Beruniy, – deydi Neru, – yunon falsafasini o‘rganib, hind falsafasini mutolaa qilmoq uchun sanskrit tilini o‘rganadi. Beruniy hind va yunon falsafasini bir-biriga solishtirib, bularda mavjud bo‘lgan umumiylikni ko‘rib hayratda qoldi. Beruniyning kitobi daliliy ma’lumotlarni qamrab olish bilan birga, u urush, talon-toroj, ommaviy qirg‘in bo‘lishiga qaramay, fan ahllari o‘z ishlarini davom ettirganini ko‘rsatib beradi. Ikki orani nafrat va xudbinlik kayfiyatlari buzib turgan paytlarda ham Beruniy begona odam bo‘la turib, bu o‘lka kishilari ahvolini tushuntirishga harakat qildi”. Zotan, Abu Rayhon Beruniy o‘z davrida ilm olamiga Hindistonni kashf etgan ulug‘ bir kashshof bo‘lgan edi. Hind madaniyati tarixida Beruniydan so‘ng yana bir vatandoshimiz, ulug‘ zot Zahiriddin Muhammad Bobur ham yorqin iz qoldirdi. Quyoshning choshgohdagi balandligini armila bilan o‘lchagan. Oradan 30 yil o‘tgach, Beruniy yoshligida o‘zi o‘lchab olgan natijalarni tahlil qilar ekan, ular anchagina ishonchli



bo‘lganligini ta’kidlaydi. Yoshlik yillarida u quyosh tutilishini kuzatish bilan shug‘ullanadi. 22 yoshida Beruniy Markaziy Osiyoda birinchi bor er globusini yaratdi. O‘zidan oldingi ajdodlar qoldirib ketgan ko‘plab kitoblarni o‘rganadi va bizgacha etib kelgan, turli xalqlarning yil hisoblari haqidagi ilk yirik asari – “Osorul boqiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”)ni yaratadi. Unda yunonlar, rimliklar, forslar, sug‘diylar, xorzamiylar va boshqa ko‘plab qabila va xalqlarning barcha davrlari, bayram hamda taqvimlari, shuningdek Sharqning turli mamlakatlarining madaniyat va adabiyot tarixi to‘la bayon etilgan. Bu asarda Beruniy o‘zini faqat elshunos olim emas, balki tilshunos, arab, yunon, fors, suryoniy va boshqa til hamda adabiyotlarning bilimdoni sifatida namoyon etdi. 998 yilda Jurjon hokimi Qobus ibn Vushmagir uni o‘z shahriga taklif qiladi va Beruniyga oliy lavozim, ya’ni

vazirlikni taklif qiladi. Ammo ilmga tashna Beruniy bu taklifni rad qiladi va ilm bilan shug’ullanadi. Bundan tashqari u Jurjoniya davlatida o’zining “Osorul boqiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarini yaratdi. 1004 yilda u Xorazmshoh Ma’mun II ning taklifiga binoan Gurganchga qaytib keladi va Gurganchda shoh nomidagi “Ma’mun akademiyasi”ni barpo etadi. Bu akademiyada Abu Ali ibn Sino, Miskavayx, faylasuf Abu Sahl Masihiy, matematik va astronom Abu Nasr ibn Iroq, tarjimon va hakim Abul Xayr ibn Xammor, adib va shoir Abu Mansur as-Saolabiy, Zayniddin Jurjoniyy va boshqa o’nlab olimlar ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo’shdilar va ajoyib asarlar yaratdilar. Ma’mun davrida Xorazm iqtisodiy, siyosiy, madaniy jihatdan mislsiz darajada taraqqiy etdi, dunyoning eng nufuzli savdo markaziga aylandi. Xorazm ustidan o’tib, g’arb bilan sharqni bog’lab turgan yo’l orqali savdo karvonlari bu o’lkadan dunyoning turli burchaklariga dehqonchilik, hunarmandchilik mahsulotlaridan tortib, harbiy asbob-anjomlargacha olib ketishardi. Bu erda turli kemasozlik korxonalari ham ishlab turganligi ma’lum. Bunday ko’lamdagi xo’jalikni boshqarish va katta savdo-sotiqni yo’lga qo’yish uchun ilm-fan matematika, geometriya, astronomiya, jug’rofiya, botanika, ximiya fanlarining taraqqiyoti zarur edi. Shu zaruriyat tufayli ilm va ijod ahli tashkiliy jihatdan birlashib, faoliyat ko’rsatganlar. Barcha qadimiy ilmiy manbalarda bu jamoa “Dorul hikma” (“Donishmandlar uyi”) deb atalganki, bu “akademiya” mazmuniga to’g’ri keladi. Keyingi asrlardagi manbalarda bevosita “akademiya” so’zi qo’llanilayotganligi ham buni to’liq isbotlaydi. Ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyot tarixini tahlil qilar ekanmiz, ushbu sohalaridagi meroslar yuzaga kelgan muhit, siyosiy-iqtisodiy sharoitlarga to’xtalib o’tmaslik aslo mumkin emas. Ma’mun akademiyasi allomalari merosini o’rganish, ulardan ta’lim amaliyotida samarali foydalanish uchun ham o’sha davrdagi Xorazm davlati tarixiga nazar solish, u erda bo’lgan voqealarni tahlil qilish zaruriyati paydo bo’ladi. Vaholanki, o’tmishni anglash kishi kamolotini ta’minlovchi eng asosiy omildir. Prezidentimiz aytganlaridek, “Inson o’zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo’ladi”. Markaziy Osiyo xalqlari buyuk tarixga ega. 992 yil shimoliy va janubiy Xorazm hukmdorlari o’rtasida boshlangan urush natijasida shimoliy Xorazm hukmdori Ma’mun ibn Muhammad g’alaba qozonadi va 995 yilda Xorazmshoh unvonini qabul qilib, Gurganchni poytaxt deb e’lon qildi. Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Gurganch butun Markaziy Osiyoda yirik iqtisodiy, siyosiy markazlardan biriga aylanadi. Xuroson, Movorounnahr, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlar karvonlari shaharda to’xtab, Ustyurt orqali Volga bo’yiga chiqib, Qora dengiz atrofiga, Evropa tomon yo’l olardilar. Ustyurtdagi o’sha davrda serqatnov bo’lgan karvon yo’llarining

qoldiqlariga ko’ra, ular Xorazmdan chiqib, ikki tomonga ketgan: biri Uchquduk, Buloq, Qo’shbuloq, Beleuli orqali shimoliy-g’arbga, ikkinchisi Mang’ishloq tarafga yo’nalgan. Bu yo’llar bo’ylab toshdan tiklangan istehkomlar va karvonsaroylar joylashgan. Shuningdek, bu hududda Alan qal’a, Shemaxa qal’a, Devkesgan qal’a shaharlarini xaroba qoldiqlari topilgan. Ma’mun ibn Muhammad (995-999), Ali ibn Ma’mun (999-1009)lar davlat mustaqilligini yanada mustahkamlab, uning harbiy qudratini oshirdilar. Endi qo’shni mamlakatlardan Xurosonda yaqinda tashkil topgan G’azna podsholigi, arab xalifaligi, Kiev Rusi ham uni tan olar edi. Xorazm boshqa davlatlar siyosatida ham faol ishtirok etadigan bo’ldi. Hatto Kiev hukmdori Vladimir ham islom diniga o’tish istagini bildirib Xorazmga o’z vakillarini yuborganligi haqida ma’lumotlar bor. Beruniyning ustozlari Abu Nasr ibn Iroq o’z davrining o’ta bilimdon olimi edi. U tirikligidayoq “o’z davrining Ptolemeyi” degan laqab olgandi. Undan tashqari Abu Nasr Beruniy o’z xonadonida tarbiyalab voyaga etkazgan. Ana shu ikki buyuk siymo tufayli Gurganch saroyida ilm ahli uchun ideal sharoit yaratiladi. Bu ikki shaxs yaqin va o’rta sharqdagi ko’plab olimlar bilan shaxsiy yozishmada edilar. Ibn Iroq va Beruniyning takliflari bilan 1004 yildan boshlab Nishopur, Balx va Buxorodan va hatto arab Iroqidan ham olimlar Gurganchga kela boshladilar. Shu tariqa Gurganchda “Dorul hikma” nomini olgan ilmiy muassasa to’la shakllanadi. Bu ilmiy muassasada xuddi Bag’doddagi “Baytul hikma”dagi kabi ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib boriladi. Beruniy keltirgan ma’lumotlarga ko’ra, bu erda suryon va yunon tillaridan ba’zi tarjimalar ham bajarilgan. Ali ibn Ma’mun vafotidan keyin (1009) uning ukasi Abul Abbos Ma’mun ibn Ma’mun Xorazmshohlar taxtini egallaydi. U Beruniy saroyga taklif qiladi va o’ziga eng yaqin maslahatchi qilib oladi. Buning oqibatida Ma’mun akademiyasi faoliyati uchun yanada kattaroq imkoniyatlar ochiladi. Qirqdan oshiq olimlar ishlab faoliyat ko’rsatgan ilmiy markazda o’z davrining etuk insonlari matematika, astronomiya, ruhiyat, ximiya, mantiq, tibbiyot, falsafa, tarix, tilshunoslik, ta’lim-tarbiya, adabiyot, musiqa, geografiya, geodeziya, topografiya, mexanika singari turli fan sohalari bilan shug’ullanib, ularning kelajakda jahon miqyosidagi rivojiga zamin yaratganlar. Birok bu akademiyaning umri qisqa bo’ldi, 1017 yilda Xorazm yirik istilochi Sulton Mahmud G’aznaviy qo’l ostiga o’tdi. Hazorasp shahri yaqinidagi jangda Xorazm qo’shini g’alabaga erishayotgan bir paytda turklar yordamida va Hindistondan etib kelgan fillar qo’shini yordamida Sulton Mahmud Xorazm qo’shinini yanchib tashladi. Xorazm qo’shini lashkarboshilari fillar oyog’i ostida toptaldi, poytaxt Gurganch talandi, Xorazmshohni qat’iy talabi va ko’magi ila Gurganchdan yunon, yahudiy, arab va boshqa xalqlar vakillaridan iborat kichik

ilmiy karvon Abu Ali ibn Sino boshchiligida chiqib ketdilar. Sulton Mahmud shaharda qolgan olimlarni ba’zilarini dahriylikda ayblab qatl qildirdi, qolgan mashhur olimlarni o’z mamlakatining poytaxti G’azna shahriga olib ketdi va bu erda Beruniy “Hindiston tarixi” asarini hamda 1025 yilda “Geodeziya”, 1030-1041 yillar oralig’ida “Al-Qonun al-Mas’udiy”, 1041-1048 yillarda “Mineralogiya” hamda “Kitob as-saydana fi-t-tibb” asrlarini yaratdi. Olimning fan taraqqiyotiga qo’shgan hissasi juda ulkan bo’lib, u 152-ta risola yaratgan, shundan 30 tasi bizgacha etib kelgan. Yuqorida aytib o’tganimizdek Abu Rayhon Beruniy bundan ming yil oldin Hindistonda bo’lib, uning tarixi, madaniyatini o’rganish uchun qadimgi hind yozuvi – sanskritni o’rganib, o’zining mashhur “Hindiston” asarini yozgan. “Hindiston” hajmi jihatdan juda katta asar bo’lib, unda hind adabiyoti, falsafasi, aniq fanlar, geografiya, elshunoslik, qonun va urf-odatlar, din, tarixiy-diniy rivoyatlar, hind yozuvining turlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bu asar to’g’risida yirik hind davlat arbobi Javoharlal Neru jumladan shunday degan: - “Beruniy yunon falsafasini o’rganib, hind falsafasini mutolaa qilmoq uchun sanskrit tilini o’rgana boshladi. Beruniy hind va yunon falsafasini bir-biriga solishtirib, bularda mavjud bo’lgan umumiylikni ko’rib hayratda qoldi. Beruniyning kitobi faktik materialni qamrab olish bilan birga, u urush, talon-taroj, ommaviy qirg’inlar bo’lishiga qaramay, fan ahllari o’z ishlarini davom ettirganliklarini ko’rsatib beradi. Ikki orani nafrat va xudbinlik kayfiyatlari buzib turgan paytlarda ham Beruniy begona odam bo’laturib, bu o’lka kishilari ahvolini tushuntirishga harakat qiladi. Rus olimi V.V.Bartold buyuk vatandoshimiz haqida “Beruniy shunday serqirra olimki, o’z davrida mavjud bo’lgan ilm sohalaridan shug’ullanmagani uning shug’ullanganidan kamdir. Uning yozgan asarlari shunchalik ko’p va serqirraki bunga bir odamning umri kifoya qilganiga kishi hayron qoladi”. Yana bir buyuk rus sharqshunos olimi, akademik S.P.Tolstov ilmiy anjumanlarning birida Evropa olimlaridan biri “Beruniy XI asr Leonardo do Vinchisi” degan ta’rifga javoban “Leanardo do Vinchi XV asr Beruniysidir” deb vatandoshimizga ta’rif bergan edi. Beruniy ilmiy asarlari o’z ahamiyatini yo’qotmasdan avlodlar qo’lida qadrlidir. “O’tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Meneralogiya”, “Saydana” va “Geodeziya” kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. Beruniy ilm-fanning hamma sohalarini yaxshi bilgan qomusiy olim bo’lib, u o’zining asarlari bilan falsafa, astronomiya, geodeziya, geografiya, tarix fanlariga katta hissa qo’shgan. Abu Rayhon Beruniyning Ibn Sino bilan yozishmalari ham uning Gurganchda turgan davrida bo’lgan. Ularning savol-javoblaridan va Abu Rayhon Beruniyning Ibn Sinoga yozgan e’tirozlaridan bizgacha faqat 18 tasi etib kelgan. Bu yozishmalar uning tabiat falsafasi va fizika

masalalari bilan ham qiziqqanini ko’rsatadi. Bu savol-javoblarda ikki mashhur olim fazo, issiqlikning tarqalishi, jismlarning issiqdan kengayishi, nurning aks etishi va sinishi kabi masalalarda ilmiy munozara olib borganlar. Abu Nasr ibn Iroq Beruniyga ustozlik qilgan buyuk matematik, astronom. U haqda atoqli matematik, shoir va astronom Umar Xayyom “matematika bilan shug’ullanganlar ichida eng ulug’i”, - degan edi. Ibn Iroqning “Podsho al-Magesti”, “Isloh kitob Manalaus”, “Geometriyadan savollarga javob” va boshqa asarlari ma’lum. Ibn Iroqning tarjimai holiga oid ma’lumotlar juda kam uchraydi. U haqdagi ma’lumotlar asosan uning shogirdi Beruniy asarlarida saqlangan. Buyuk bobokalonimiz 1048 yilda G’azna shahrida vafot qilgan. Buyuk olimni nomini abadiylashtirib yurtimizda ko’pgina buyustlari, ilmiy markazlar, ko’chalar, shahar, qishloqlar faxr ila olim nomi bilan ataladi.

XULOSA

“Beruniy “Hindlarning aqliy va xissiy mavjud narsalar haqidagi tushunchalari” haqidagi shu bobda ilmiy tafakkur va diniy, mifologik, estetik tafakkurining o’ziga xos qonuniyatlari borligini juda teran tushuntiradi”². Beruniy fikricha, musulmon sharoitida Alloh ismi faqat yagona Tangriga xos bo’lib, Tangrining boshqa ismlari Rahmon, Rahim, Jabbor, Razzoq, Oqil, Sobir, Odil kabi ismlari odamlarga xos fazilatlarni ifodalash uchun ishlatavergani kabi, yunonlarda farishtalar hisoblanuvchi Quyosh, Oy, Sayyora va yulduzlarni ham ilohiy nomlar bilan atash va ularga sig’inib, qurbonliklar qilishlari bu mavjudotlarning Xudoga yaqinligini anglatadi. Xudoga yaqinlik va bu moddiy olamdan uzoqlashib, farishtalarga va hatto yagona Xudoga qo’shib ketish haqidagi tasavvufiy qarashlar ma’jusiylar dinlarga: buddaviylikda ruhlarning qaytishiga, ko’chib yurishi, zardushtiylik olovparastlar hamda sobiylik (yulduzparastlik) e’tiqodlarining shakllanishiga kuchli ta’sir ko’rsatgani sharq falsafasida birinchi marta Beruniy tomonidan aqliy va hissiy tafakkurlarining bir-biri bilan qo’shib, estetik idrok, estetik ong, estetik tafakkur butun boshli diniy, ijtimoiy, falsafiy sistemalarni tashkil etishi yunon va hind mifologiyasini germenivtika yoki har tomonlama izchil sistemali analiz tahlil orqali tadqiq etilganini ko’ramiz. Biz mazkur ilmiy tadqiqotimizda Beruniyning “Hindiston” asarida qadimgi hind xalqlarining boy ilmiy, ma’naviy merosida mavjud bo’lgan diniy, axloqiy ijtimoiy, falsafiy, badiiy, estetik qarashlar butun insoniyat Gretsiya, Rim, Bobil Vavilon, Somiriylar Shumerlar, Kichik Osiyo, O’rta Osiyo xalqlarining falsafiy qarashlari bilan uzviy bog’liq ekanligi ko’rsatib berilgan.

² Irisov, A. Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asari. Tanlangan asarlar. II tom. – T.: Fan, 1965. – B. 55.

Adabiyotlar

1. Бойназаров Ф. Қадимги дунё тарихи. Дарслик. 2004.
2. Лафасов М. Жаҳон тарихи (1918-2008). –Т., 2010.
3. Гофуров А. Ҳиндистон. ФарДУ. 2009.
4. Abu Rayhon Beruniy “Geodeziya”. – Т.: Fan, 1966. – 378 b.
5. Abu Rayhon Beruniy. “Mineralogiya”. – Т.: Fan, 1963. - 338 b.
6. Nizomiddinov N “Hindistonda islom: tarix, Ijtimoiy-siyosiy hayot va hind musulmon madaniyati”. – Т.: O‘zbekiston, 2006. – 367 b.
7. Boqiev F. Beruniy ruhlarning qaytishi haqida. (“Hindiston” asarida estetik tafakkur durdonalari.). – Т.: Faylasuflari milliy jamiyati nashriyot, 2004. – 266

